



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

METHODOLOGY AND METHODS OF SCIENTIFIC RESEARCH IN PEDAGOGY

Andijan State Pedagogical Institute Department of Pedagogy and Psychology Acting
Associate Professor

Mahammatova Ma'muraxon

Faculty of Exact and Natural Sciences Physics 2nd year Student of group 201

Erkinjonova Niginabonu

Abstract: This article systematically analyzes the modern scientific research methodology of pedagogical science and its specific research methods. During the research, the role of methodological principles in the objective study of educational processes, identification of existing problems and finding scientifically based solutions to them is highlighted. Also, the importance of theoretical and empirical research methods (observation, interview, pedagogical experiment, test, etc.) in understanding pedagogical reality is revealed.

Keywords: pedagogy, methodology, scientific research, empirical methods, theoretical analysis, pedagogical experiment, educational system.

PEDAGOGIKA FANNING ILMIY-TADQIQOTLAR METODOLOGIYASI VA METODLARI.

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogika fanining zamonaviy ilmiy-tadqiqot metodologiyasi va uning o‘ziga xos tadqiqot metodlari tizimli ravishda tahlil qilingan. Izlanish davomida ta’lim-tarbiya jarayonlarini obyektiv o‘rganish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularga ilmiy asoslangan yechimlar topishda metodologik prinsiplarning o‘rni yoritilgan. Shuningdek, nazariy va empirik tadqiqot metodlarining (kuzatish, suhbat, pedagogik eksperiment, test va h.k.) pedagogik voqelikni bilishdagi tutgan ahamiyati ochib berilgan.



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

Kalit so‘zlar: pedagogika, metodologiya, ilmiy tadqiqot, empirik metodlar, nazariy tahlil, pedagogik eksperiment, ta’lim tizimi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan Prezident farmon va qarorlari pedagogika fanining taraqqiyoti, pedagogik tadqiqotlarning samaradorligini oshirish hamda zamonaviy ta’lim texnologiyalarini amaliyotga joriy etishda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF–6108-son Farmoni – "O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida". Hujjat ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va pedagog kadrlar tayyorlashni takomillashtirish masalalarini qamrab oladi.[1]

Pedagogika fanining rivojlanishi ilmiy tadqiqotlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Pedagogik tadqiqotlar ta’lim va tarbiya jarayonlarini o‘rganish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni hal etish yo‘llarini ishlab chiqishga xizmat qiladi. Bunday tadqiqotlarni samarali tashkil etishda metodologiya va metodlar muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik tadqiqot metodologiyasi — bu ilmiy bilishning tamoyillari, usullari va tadqiqotni tashkil etish yo‘llari haqidagi ta’limotdir. Metodologiya tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmetini aniqlashga, ilmiy farazlarni ishlab chiqishga hamda olingan natijalarni tahlil qilishga yordam beradi. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasining asosini ilmiylik, obyektivlik, tizimlilik, izchillik va amaliyot bilan bog‘liqlik tamoyillari tashkil etadi. Pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodologiyasi — ta’lim va tarbiya jarayonidagi muammolarni o‘rganish, qonuniyatlarni ochib berish hamda samarali yechimlarni ishlab chiqishga xizmat qiluvchi ilmiy usullar, tamoyillar va yondashuvlar majmuasidir. U ilmiy tadqiqotlarning to‘g‘ri yo‘nalishini belgilab beradi. Metodologiya (metod va logiya so‘zlaridan) — tadqiqotchining nazariy va amaliy faoliyatini tashkil etish, tiklash tamoyillari va usullari tizimi hamda bunday tizim



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

haqidagi ta’limot. Metodologiya metodlar haqidagi ta’limot yoki yalpi-umumiy bilish metodi, deb ham ta’riflanadi. Metodologiya metodlarga va umuman voqelikka qanday yondashish yo‘lini o‘rgatadi. Voqelikning muayyan qismini, biror jihatini, rivojlanishining ayrim holatini o‘rgatuvchi Metodologiyaga metafizikani, voqelikning chiziqli rivojlanish, o‘zgarish jarayonini va uni tashkil etuvchi elementlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorliklarni aks ettiruvchi metodologiyaga dialektikani, voqelikda ro‘y beruvchi keskin, halokatli o‘zgarishlar, nochiziqli rivojlanish jarayonlarini o‘rganishda qo‘llaniladigan metodologiyaga sinergetikapsh misol sifatida ko‘rsatish mumkin. [2]

Pedagogika fani rivoji muayyan pedagogik muammolarni tadqiq etish maqsadida olib borilgan tadqiqot ishlarining g‘oyasi, mazmuni hamda natijalari hisobiga ta’minlanadi. Ijtimoiy va ishlab chiqarish jarayonining keskin rivojlanishi shaxsni har tomonlama kamol toptirish imkonini beruvchi omil hamda pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash, jamiyat va shaxs ma’naviyatiga ziyon yetkazuvchi holatlarni bartaraf etishni taqozo qiladi. Tarbiya jarayonlarining mohiyatini anglash ularni keng yoki tor doirada o‘rganish, mavjud ko‘rsatkichlar vositasida ularning sodir bo‘lish sabablarini o‘rganish, zarur chora-tadbirlarni belgilash ilmiy izlanishlarni tashkil etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Pedagogik izlanishlarning samarali kechishi bir qator obyektiv va subyektiv omillarga bog‘liq. Mazkur jarayonda maqsadga muvofiq keluvchi, maqbul. Ayni vaqtda samarali bo‘lgan metodlarni tanlay olish ham muhimdir. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo‘nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berishga berish tamoyillari, obyekt va subyektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullaridir. Ayni vaqtda O‘zbekiston Respublikasida pedagogik yo‘nalishda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar dialektik yondoshuvga asoslanadi. Pedagogik hodisa, voqeyelik va ularning qonuniyatlarilarini aniqlashga bunday yondashuv pedagogik



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

hodisa va jarayonlarning umumiy aloqasi, ularning izchil, uzluksiz rivojlanishi, bolaning fiziologik rivoji uning psixologik, intellektual jihatdan takomillashtirib borishini ta’minlashi, qarama-qarshiliklarning shaxs kamolotini ta’minlashdagi o’rni va roli, shuningdek, dialektika kategoriyalarining ahamiyatini e’tirof etadi.[3]

Pedagogika fanida qo‘llaniladigan ilmiy-tadqiqot metodlari bir necha guruhlarga bo‘linadi. Nazariy metodlarga ilmiy adabiyotlarni o‘rganish, tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, modellashtirish va tizimlashtirish kiradi. Ushbu metodlar pedagogik hodisalarning nazariy asoslarini o‘rganishda qo‘llaniladi.

Empirik metodlar esa pedagogik voqelikni bevosita o‘rganishga xizmat qiladi. Ularga kuzatish, suhbat, anketa, intervyu, pedagogik eksperiment, test, faoliyat mahsullarini tahlil qilish va hujjatlarni o‘rganish kiradi. Kuzatish metodi orqali ta’lim jarayonidagi hodisalar tabiiy sharoitda o‘rganiladi. Suhbat va intervyu metodlari yordamida o‘quvchilar, o‘qituvchilar va ota-onalarning fikrlari aniqlanadi. Pedagogik eksperiment esa yangi metod va texnologiyalarning samaradorligini tekshirish imkonini beradi. Tadqiqot natijalarini qayta ishlashda matematik-statistik metodlardan foydalaniladi. Bu metodlar olingan ma’lumotlarning aniqligi va ishonchliligini ta’minlaydi. Pedagogik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish murakkab, muayyan muddatni taqozo etuvchi, izchillik, uzluksizlik, tizimlilik hamda aniq maqsad kabi xususiyatlarga ega bo‘lgan jarayon bo‘lib, uning samarali bo‘lishi uchun bir qator shartlarga rioya etish zarur. [4]

Ular quyidagilardir:

- 1) muammoning dolzarbligi va mavzuning aniq belgilanganligi;
- 2) ilmiy farazlarning to‘g‘ri shakllantirilganligi;
- 3) vazifalarning tadqiqot maqsadi asosida to‘g‘ri belgilanganligi;
- 4) tadqiqot metodlar tizimiga nisbatan obyektiv yondashuv;



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO’NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

5) tajriba-sinov ishlari jarayoniga jalb etiluvchi respondentlarning yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlari, shuningdek, shaxs rivojlanishi qonuniyatlarining to’g’ri hisobga olinganligi;

6) tadqiqot natijalarini oldindan tashhishlash va uning natijalarini bashoratlash;

7) tadqiqot natijalarining kafolatlanganligi.

Bugungi kunda pedagogika fanida innovatsion yondashuvlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamli vositalardan foydalanish ilmiy tadqiqotlarning samaradorligini yanada oshirmoqda. Bu esa ta’lim sifatini yaxshilash, o’quvchilarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish hamda pedagogik faoliyatni takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Shunday qilib, pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodologiyasi va metodlari ta’lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda o’rganish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishning muhim vositasidir. Ilmiy tadqiqotlar natijasida ta’lim sifati oshadi, pedagogik faoliyat takomillashadi va jamiyatning intellektual salohiyati yuksaladi. Shu sababli pedagogik metodologiya va tadqiqot metodlarini chuqur o’rganish zamonaviy pedagogning muhim kasbiy talablaridan biri hisoblanadi.[5]

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodologiyasi va metodlari ta’lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda o’rganish, tahlil qilish va takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Metodologiya tadqiqotning nazariy poydevorini yaratib, ilmiy izlanishlarning maqsad va vazifalarini to’g’ri belgilashga yordam beradi. Tadqiqot metodlari esa pedagogik hodisa va jarayonlarni chuqur o’rganish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularning samarali yechimlarini ishlab chiqish imkonini beradi. Shuningdek, pedagogik tadqiqotlar natijasida ta’lim mazmuni boyitiladi, o’qitish usullari takomillashtiriladi va o’quvchilarning bilim olish imkoniyatlari kengayadi. Ilmiy asoslangan pedagogik yondashuvlar o’quvchilarning



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

mustaqil fikrlashi, ijodkorligi va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, pedagogik tadqiqotlar o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, ta’lim sifati va samaradorligini yuksaltirishda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–6108-son Farmon. 2020-yil 6-noyabr.
2. Hasanboyev J., To‘raqulov X., Haydarov M., Hasanboyeva O. Pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2011.
3. www.ziyonet.uz – Ta’lim resurslari axborot 594ortal.
4. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2016.
5. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2018.